


**Andijon viloyatining
nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi**
2025-yil yanvar-sentabr oylari uchun (dastlabki ma'lumotlar)

- I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi.
- II. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi.
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.
- IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.
- V. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

**I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan
ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi**

Andijon viloyatida 2025- yil yanvar-sentabr oylarida o'rtacha oylik ish haqi 4 996,5 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,0 % ga o'sgan.

Yillar kesimda o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(yillik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(choraklik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(yillik\)](#)

II. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori

Viloyat bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar 2025-yilning yanvar-sentabr oylari uchun keltirilgan bo'lib, 2024-yilning mos davri bilan taqqoslangan.

	Ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati	4 996,5	112,0
Andijon sh.	6 466,2	112,1
Xonobod sh.	4 736,9	109,5
tumanlar:		
Oltinko'l	3 931,7	123,4
Andijon	3 809,6	121,4
Baliqchi	3 138,7	120,8
Bo'ston	3 305,2	122,1
Buloqboshi	3 431,7	122,9
Jalaquduq	3 669,1	124,8
Izboskan	4 524,0	111,2
Ulug'nor	3 379,2	123,9
Qo'rg'ontepa	4 029,3	120,2
Asaka	6 845,7	92,7
Marhamat	3 690,8	121,3
Shahrixon	3 962,3	119,6
Paxtaobod	4 058,6	122,9
Xo'jaobod	3 468,8	124,9

Viloyat kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari Xo'jaobod tumanida 3 468,8 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24,9 % ga, Jalaquduq tumanida 3 669,1 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24,8 % ga o'sganligi kuzatildi.

Shuningdek, bu ko'rsatkich Ulug'nor tumanida 3 379,2 ming so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 23,9%), Oltinko'l tumanida 3 931,7 ming so'mni (23,4%), Buloqboshi tumanida 3 431,7 ming so'mni (22,9%), Paxtaobod tumanida 4 058,6 ming so'mni (22,9%) va Bo'ston tumanida 3 305,2 ming so'm (22,1%), Andijon tumanda 3 809,6 ming so'm (21,4%), Marhamat tumanida 3 690,8 ming so'm (21,3%)ni tashkil etgan.

O'z o'rnida, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Shaxrihon tumanida 3 962,3 ming so'mni (19,6%), Qo'rg'ontepa tumanida 4 029,3 ming so'mni (20,2%), Baliqchi tumanida 3 138,7 ming so'm (20,8%), Andijon shaharda 6 466,2 ming so'mni (12,1%), Izboskan tumanida 4 524,0 ming so'mni (11,2%), Xonobod shaharda 4 736,9 ming so'm (9,5%), hamda Asaka tumanida 6 845,7 ming so'mni (92,7%) tashkil etib, boshqa shahar va tumanlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori haqida ma'lumotlar 2025-yilning yanvar–sentabr oylariga oid bo'lib, 2024-yilning mos davriga nisbatan taqqoslangan. Bu taqqoslash orqali sohalar kesimida farqlar va o'zgarishlar tahlil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turi nomi	Ming so'm	O'sish sur'ati, %da
Sanoat	6 577,8	102,5
Qurilish	4 036,9	95,8
Savdo	4 315,6	107,6
Tashish va saqlash	6 226,4	126,6
Yashash va ovqatlanish	2 478,5	118,3
Axborot va aloqa	8 757,6	98,2
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati	14 802,0	119,9
Ta'lim	4 040,9	119,9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3 676,1	107,6
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	3 800,4	121,7
O'rtacha	4 996,5	112,0

O'rtacha oylik nominal ish haqi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganida eng yuqori o'sish sur'atlari tashish va saqlash sohasida qayd etilganligi, xususan, bu sohada 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 126,6% ni, ish haqi miqdori esa 6 226,4 ming so'mga yetganligi kuzatildi.

Shuningdek, ta'lim sohasida ham sezilarli o'sish sur'ati kuzatilib, ish haqi miqdori 4 040,9 ming so'mni tashkil etib, o'sish 19,9% ga san'at, ko'ngil ochish va dam olish sohalarida esa 3 800,4 ming so'mni tashkil etib, o'sish 21,7% ga, bank, sug'urta, lizing, kredit va moliyaviy vositachilik faoliyati sohasida ish haqi miqdori 14 802,0 ming so'mni tashkil etib, 9,0% ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 3 676,1 ming so'mni tashkil etib, 7,6% ga, yashash va ovqatlanish xizmatlari yo'nalishida 2 478,5 ming so'mni tashkil etib, 18,3% ga, sanoat sohasida 6 577,8 ming so'mni tashkil etib, 2,5% ga, savdo sohasi bo'yicha esa 4 315,6 ming so'mni tashkil etib 7,6% ga o'tgan yilning mos davriga nisbatan oshganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, axborot va aloqa sohalarida o'rtacha ish haqi 8 757,6 ming so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 98,2% ga va o'rtacha oylik nominal ish haqi, qurilish sohasida 4 036,9 ming so'm ni tashkil etib, 95,8% ga pasaygan bo'lsada boshqa tarmoqlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdorining so'nggi besh yildagi o'zgarishi tahlil etilganida, 2025- yilning 3-choragida bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida ish haqi miqdori 14 802,0 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 6 725,5 ming so'mga oshganligi kuzatildi.


Shuningdek, so'nggi besh yilda axborot va aloqa sohasi bo'yicha ish haqi miqdori 8 757,5 ming so'mga, tashish va saqlash sohasida 6 226,4 ming so'mga, sanoat sohasida 6 577,8 ming so'mga, san'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida 3 800,4 ming so'mga ko'payganligi kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Sanoat sohasida o'rtacha oylik ish haqi 6 577,8 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohasida 4 940,3 ming so'm, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida 8 614,5 ming so'm, ishlab chiqarish sanoati sohasida 6 547,3 ming so'm, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida 3 475,3 ming so'm ekanligi kuzatildi.

Sanoat sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Savdo sohasida o'rtacha oylik ish haqi 4 315,6 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash tarmog'i 5 623,9 ming so'mni, avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari ulgurji savdo 3 328,4 ming so'mni, avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdo sohasi 4 193,5 ming so'mni tashkil etgan.

Savdo sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Tashish va saqlash sohasida oʻrtacha oylik ish haqi 6 226,4 ming soʻmni tashkil etgan boʻlsa, uning ayrim sohalari boʻyicha oʻrtacha oylik ish haqi miqdori ombor xoʻjaligi va yordamchi transport 11 915,2 ming soʻmni, quruqlikdagi va quvur transporti 5 191,6 ming soʻmni, pochta va kuryerlik faoliyati sohasida 2 768,4 ming soʻmni tashkil etgan.

Tashish va saqlash sohasida ish haqi oʻzgarishi dinamikasi, *ming soʻm*




Axborot va aloqa sohasida oʻrtacha oylik ish haqi 8 757,6 ming soʻmni tashkil etgan boʻlsa, uning ayrim sohalari boʻyicha oʻrtacha oylik ish haqi dastur tuzish faoliyati va teleradioeshttirish sohasida 8 207,7 ming soʻmni va aloqa sohasi 9 133,3 ming soʻmni tashkil etgan.

Axborot va aloqa sohasida ish haqi oʻzgarishi dinamikasi, *ming soʻm*




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi 14 802,0 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi majburiy ijtimoiy sug'urtalashdan tashqari, qayta sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari sohasi 21 312,0 ming so'mni, sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar sohasida 14 670,6 ming so'mni tashkil etgan.

Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Ta'lim sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm

Ta'lim sohasida o'rtacha oylik ish haqi 4 040,9 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi oliy ta'lim sohasida 8 142,9 ming so'mni, texnik va professional ta'lim 4 246,8 ming so'mni, umumiy o'rta ta'lim 4 500,5 mingni so'm, maktabgacha ta'lim sohasi 2 291,5 ming so'mni tashkil etgan,



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

**V.O'rtacha oylik nominal hisoblangan
ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.**

Andijon viloyatida bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar korxona va tashkilotlar tomonidan elektron shaklda, onlayn tarzda taqdim etilgan statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi korxonalarisiz shakllantirilgan.

Respublikaning barcha korxona va tashkilotlari, jumladan kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo'jaliklari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar yilda bir marotaba shakllantirilib, e'lon qilinadi.

Ma'lumot uchun: *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-son Farmoniga muvofiq, kichik tadbirkorlik sub'ektlari va fermer xo'jaliklari statistika hisobotlarini statistika idoralariga yilda bir marotaba taqdim etishi belgilangan.*

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

Hisobot oyi uchun nominal hisoblangan ish haqi quyidagicha hisoblanadi:

$$W_n = \frac{F}{L}$$

bunda:

W_n –nominal hisoblangan ish haqi;

F – hisobot oyi uchun jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;

L – hisobot oyi uchun xodimlarning o'rtacha soni;

Nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqini hisoblash Andijon viloyatida Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024-yil 31-maydagi 122-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iqtisodiyotda ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Metama'lumot uchun havola:

[Iqtisodiyot bo'yicha ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
A.Saidmaxmdov
74 224-80-00 (6070)

Manzil:

